

KONSEPT VA BADIY KONSEPT TUSHUNCHASI

G'aniyeva Nigora Olimbekovna

nigoraganieva77777@gmail.com

Annotatsiya. Inson ongidagi har bir fikr til orqali ifoda etiladi. Tilning shu jihati tilshunoslikda ko'plab ilmiy tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Fan va texnologiyaning taraqqiy etishi barobarida tilga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Tilshunoslik insonning bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa fanlar bilan bog'landi va jarayon sababli yangi yo'nalishlar va yangi tushunchalar fan olamiga kirib keldi. Shunday yangi terminlardan biri konsept tushunchasidir. Konsept kognitalogiya, linvokulturalogiya adabiyotshunoslik kabi fanlarda qo'llanilib, ularning har birida turlicha ma'no mazmunga ega. Ushbu maqolada konsept tushunchasi, ushbu tushuncha doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari, shuningdek badiiy konsept tushunchasi mohiyati ochib berishga xarakterat qilingan.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, linvokulturologiya, adabiyotshunoslik, konsept, badiiy konsept.

Abstract. Every thought in the human mind is expressed through language. This aspect of the language has led to the creation of many scientific studies in linguistics. Along with the development of science and technology, the attitude towards language has also changed. Linguistics was connected with other sciences related to human cognitive activity, and due to the process, new directions and new concepts entered the world of science. One such new term is concept. The concept is used in such disciplines as cognitology, linguistics, and literary studies, and each of them has a different meaning. In this article, an attempt is made to reveal the concept concept, the research work carried out within this concept, as well as the essence of the concept of artistic concept.

Key words: cognitive linguistics, linguistics, literary studies, concept, artistic concept.

Абстрактный. Каждая мысль человеческого разума выражается посредством языка. Этот аспект языка привел к созданию множества научных исследований в области лингвистики. Вместе с развитием науки и техники изменилось и отношение к языку. Языкознание было связано с другими науками, связанными с познавательной деятельностью человека, и благодаря этому процессу в мир науки вошли новые направления и новые понятия. Одним из таких новых терминов является концепция. Понятие используется в таких дисциплинах, как когнитология, лингвистика и литературоведение, и каждая из них имеет разное значение. В данной статье предпринята попытка раскрыть понятие понятия, исследовательскую работу,

проводимую в рамках этого понятия, а также сущность понятия художественного замысла.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, лингвистика, литературоведение, концепт, художественный замысел.

Til har bir millatning eng qadrli xazinasini, millatni aynan o'zigagina hos bo'lgan milliylik, madaniyati va manaviyatini aks ettiruvchi vosita hisoblanadi. Shu sababli tilshunoslik tarixida tilni o'rganishga uni tahlil qilish, uni shakl va mazmuni anglashga tadqiqotchilar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilgan. Fan texnologiyaning yuksalishi jamiyatdagi har bir sohaga, shuningdek tilshunoslik fanining rivojiga va unda yangi yo'nalish va tadqiqotlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Asosiy vazifasi sifatida matni filologik nuqtai nazarida tahlil qilish deb qaralgan tilshunoslik fan doirasi tushunish, anglash, tahlil qilishga oid bo'lgan tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi va bu jarayon tilshunoslikni boshqa fan sohalari bilan bog'ladi. Til, uning shakllanishi va ma'nosini tushunishga doir bo'lgan bilimlar, shuningdek tilda hamisha jamiyatda bo'ladigan o'zgarishlarni anglatuvchi xususiyatlarni mavjudligi tilshunoslikning kognitalogiya yani insonni aqliy faoliyati bilan shug'ullanuvchi fan bilan biriktirdi.

Insonga boshqa mavjudotlardan farqli ravishda berilgan ong va tafakkur sabab inson olingan bilim ko'nikmalarni ularni xususiyat va o'xshash faktorlariga ko'ra guruhlarga bo'ladi. Insoning atrof muhit va jamiyatdagi voqealarni predmetlarni turli xususiyatlarni ong orqali anglanishi bilish jarayoni hisoblanadi. Inson bilish jarayoni orqali olgan ko'nikmalarni ongida saqlaydi va uning nutq orqali aks ettiradi. Shu jihatga ko'ra lison kognitiv, aqliy tizimga tegishli bo'lgan faoliyat mahsulidir.

Kognitalogiya fanining paydo bolish davri 1956 yil deb hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik kognitalogiya asosida vujudga kelgan. Kognitiv tilshunoslik 70-yillarning o'rtalarida fan olamida keng yoyildi. Bu yangi yo'nalishning rasmiy elon qilinish sanasi 1989 yilga to'g'ri keladi. Germaniyaning Duisburg shahrida kognitiv tilshunoslikka bag'ishlangan birinchi konfrensiya bo'lib o'tdi. Bu konfrensiyadan so'ng tilshunoslar tomonidan ushbu fan doirasida ko'plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borildi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R. Langaker va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog'lanadi. Kognitiv tilshunoslik til va onging o'zoro bog'liqlik muammolarini, dunyoni anglash va yangi bilimlarni egallashda tilning ro'li va shaxsning kognitiv qobilyatini tahlil qiluvchi yo'nalishdir. Kognitiv tilshunoslikning vazifasi har bir xalqning etnik-manaviy o'ziga hosligini ifodalovchi birliklar yordamida ko'rsatilgan tasvir lingvistik struktura bilan birlashtiradi. "Kognitiv tilshunoslik tilni aqliy hodisa sifatida bir biriga chambarchas bog'laydi." Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi va maqsadi insonni o'rab turgan muhitni, insoniyat tarixi va madaniyatini o'rganishdagi til sistemasining o'zni, inson tajribasi va olingan bilimlar asosida to'plangan bilimni ma'lum bir tartibga tushurish va uni boshqalarga yetkazishda asosiy ro'l o'ynaydigan tilni tadqiq qilishdir. Bu jarayonni tilshunoslar lingvokognitiv faoliyat deb yuritishadi."Dunyoni,bizni o'rab turgan muhitni sodir bo'lgan, bo'layotgan



voqea va hodisalarni bilish, idrok etish til faoliyati bilan uzviy bog'liqdir" Inson narsa predmet va voqea hodisalarni anglashda va idrok qilish jarayonida unda ruhiy-mantiqiy faoliyat amalga oshadi va bu jarayonda u lison bilan umumlashgan holda kognitiv tilshunoslikdagi asosiy figura konseptni yuzaga keltiradi. Jamiyatda va inson ruhiyatida sodir bo'lgan voqea va hodisalarning ongli ravishda idrok etilishi natijasida yuzaga kelgan bilim turli konseptlarni yuzaga keltiradi. Konsept tushunchasiga tadqiqotchilar turlicha ta'rif berganlar. Jumladan Sh. Safarov bu terminga quyidagicha fikr bildirgan: "Konsept ham taffakur birligi va uning asosida tushuncha obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi". Konseptni turli fanlarda qo'llanilishiga ko'ra turli ta'riflarga ega. Misol uchun Maslovaning fikriga ko'ra "Psixolingvistikada konsept til-ong-madaniyat muammosi doirasida ko'rib chiqiladi"

XX asrning oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosi masalasini o'rganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi lingokulturalogiya jadal rivojlandi. Linvokulturalogiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zoro bog'liqligi, bu bog'liqlikni shakllanishi va yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Linvokulturologiya o'rganish obektiga ko'ra tilshunoslik v madaniyatshunoslik fanlariga yaqin lekin o'rganish obektiga bo'lgan yondashuviga ko'ra farqli jihatlariga ega."Mazkur sohaning obyektini til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy sematikani nomoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi". U xalq madaniyatini tilda nomoyon bo'lishi va ifodalanishi, tilning, milliyliigi bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy madaniy qoidalarni o'rganadi. Yuqorida har ikki soha uchun umumiy bo'lga asosiy o'rganish obekti bu konseptdir. Konsept lotin tilidagi "conceptus" – tushuncha so'zidan olingan bo'lib, ushbu atamani ilk bor bor 1928- yilda rus tilshunosi Askoldov o'z maqolasida qo'llagan. Ushbu termin kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologik jihatdan o'rganiladi. Bu mavhum tushuncha bo'lganligi sababli turli tariflarga ega. Taniqli tilshunos Sh. Safarov quyidagi fikrni bergan: "Konsept ikki tamonlama xususiyatga ega. Chunki u bir tomondan madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa bir tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi". Tilshunoslar tomonidan konsept bu ong birligi, inson olgan bilim tajriba va malum bir madaniyatga xos bolgan tasavvurlarining majmuasidir degan fikr keng qo'llaniladi. Konsept shuningdek madaniyatni aks ettiruvchi birlik hisoblanadi. Xalqning o'ziga hos bo'lgan milliy madaniy hususiyatlari, etnik jihatlar mujassamlashadi va lison orqali o'z aksini topadi, shu jihatga ko'ra konsept turli xalqlarda turlicha boladi. Konsept va tushuncha terminlari dastlabki davrlarda bir biriga o'xshash terminlar sifatida talqin qilingan, ammo konsept tushuncha terminiga qaraganda kengroq ma'no mazmunga ega. Insonning ma'lum bir predmet voqea hodisaga nisbatan ongda mavjud bo'lgan bilim bilan shakllangan tassavurning aks etishi tushuncha hisoblansa, konsept esa predmet voqea hodisaning milliy madaniy hususiyatlarini aks ettirgan holda til birliklari orqali ifodalanishidir. Tilshunos Mamatov konseptga shunday ta'rif beradi: Konsept- bu ma'lum sotsiumning ma'naviy yoki moddiy madaniyatini til belgilari bilan bog'lab turadigan hodisa haqidagi bilimdir. Konseptni bunday tushunish etnomadaniy maqsadga qaratilganlik xarakteriga ega bo'lib,



konseptni go'yo mental, falasafiy va psixologik sohadan madaniy sohaga o'tkazadi. (100 bet). Konsept tushunchasini tilshunoslikka kirib kelishi madaniyat, ong, tafakkur va til birliklarining o'ziga xosliklarini aniqlashda muhim omil bo'ldi. Konsept tafakkur mahsuli sifatida insonni xayoti mobaynida anglab yetgan o'y xayollari va fikrlari natijasida shakllangan ko'rinishidir. "Konsept shaxsning milliy va madaniy tajribasiga bevosita bog'liq" Shuningdek u insonni ichki olami milliy mentalitetiga xos bo'lgan xususiyatlarni qamrab oladigan malumotlar to'plamidir. Lingvokulturologik yondashuvda konseptni obrazli va qadriyat komponentlariga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy shakllanish jarayonidir.

Tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan lingvistik tadqiqotlarda tilda mavjud bo'lgan hodisalar mohiyatini ochib berishda konseptlarni muhim o'rni mavjud. Chunki ularda so'zlovchining ijtimoiy xayot tarzi, dunyoqarashi manaviyati aks etadi. Konseptga oid ko'plab rus tilshunoslari tadqiqot ishlarini olib bordilar. B. V. Kondakovning fikriga ko'ra "konsept turli fanlarning bog'lanishi va turli madaniyatlararo aloqalar asosida rivojlanib obrazlarning ramziy ma'nolari ular asosida shakllanadi, uzviy aloqalar quriladi. Muallif va kitobxonning mulohazalaridan kelib chiqqan madaniy tushunchalar adabiy voqealikning turli jihatlarini, ularning boshqa tarixiy davrlar adabiy olami va milliy madaniyat bilan aloqalarini belgilaydi" Tadqiqotchi bir tarafdin turli millatlarda boy o'rganilish tarixiga ega bo'lgan, boshqa bir tarafdin rus adabiyotida ham keng qo'llaniluvchi "choy" konseptini turli badiiy asarlar asosida tahlil qilgan. L.N Andreevaning "Inson hayoti" nomli pyesasida "hayot" konseptini Frolova tahlil qilgan. Asarda hayot bir tomonidan hayot qadri takidlansa ikkinchi tomondan hayotning beshavqatligi tasvirlangan.

Zamonaviy tilshunoslik fanida adabiyotshunoslik va tilshunoslikning kesishuvi keng tarqalgan jarayon bo'lib, bu badiiy adabiyotni muallif nuqtai nazaridan o'rganish imkoni beradi. "Badiiy matn dunyoning badiiy tasviri bo'lib unda lingvomadaniy, lingvistik, madaniy, psixologik va boshqa jihatlar namoyon bo'ladi. Badiiy asarlar muallifning individual ongi, ham muallif mansub bo'lgan butun etnik madaniy jamiyatning in'ikosidir". Badiiy asarda shu jihatlarning mavjudligi ham mualliflik ham matnda aks ettirilgan milliy tushuncha doirasi haqida gapirish imkonini beradi. Badiiy matnlarda xalqning manaviyati va milliy ruhining mavjud bo'lishi sababli matnlarni o'rganish va tahlil qilish zarur hisoblanadi. Adabiyotda konsept fikr yoki g'oya bo'lib u asar davomida rivojlanib boradi. U tabiat sevgi yoki inson hayoloti kabi mavhum bo'lishi yoki jamiyatdagi texnologiyani tasiri kabi aniq bo'lishi mumkin. Mavzu esa boshqa bir tarafdin tushuncha yoki maxsus xabar kabi bo'lib muallif asar mobaynida uni tasvirlashga xarakat qiladi.

Inson o'z ongida shakllangan fikr mulohazalarini so'zlar orqali ifodalaydi. So'z yakka holda ma'lum bir ma'noga, matnda kelganda o'z ma'nosidan boshqa ma'noga ega bo'lishi mumkin. So'zning ma'nosi matnda anglanadi. Matnda berilgan fikr muallifning dunyoqarashi uning madaniy qarashlari natijasida yuzaga keladi. Muallif so'zlarga ularning asl ma'nosidan yoki oldin foydalanilmagan ma'no berish bilan badiiy konseptni yaratadi. Konseptni badiiy asarda tahlil qilish matnni chuqurroq va turli tarafdin tahlil qilish imkonini beradi. V.G. Zusmanning fikriga ko'ra "Badiiy konsept shunday ramz yoki tasvirki u o'z ichida etno-psixologik va tarixiy xususiyatlarni o'zida jamlaydi". Ushbu tadqiqotchi konseptni adabiyotshunoslik va lingvakulturalogiyada o'rganish o'rtasidagi



asosiy farqlarni ko'rsatib bergan. Badiiy konseptni o'rganish kognitalogiyaga doir bo'lgan tadqiqotlar bilan bog'liq. Badiiy konseptni lingvistik ifodasini o'rganish badiiy matnning g'oyaviy ma'nosini o'rganishga va yozuvchini ijodiy uslubini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy konsept umumbashariy madaniy va muallifning individual dunyoqarashini o'z ichiga oladi va shu tarzda butun asarning obrazli tizimida badiiy timsolni yaratadi. Badiiy matni o'rganish o'ziga xos xususiyatlarga, tasvir, obrazlilik, hissiylik, simvolizm, semantik mazmunning o'zgaruvchanligi va ma'noni boyishi kabi jihatlarga ega. Ilmiy lingvistik adabiyotlarda badiiy konseptsiyani o'rganishga doir bir qancha yondashuvlar bo'lib ularni asosan ikki turga ajratish mumkin:

Badiiy konseptni muallifning individual fikrlash birligi sifatida tahlil qilish (Bepalova, Eremenko, Tarasova);

Badiiy konseptni dunyoning badiiy tasviri sifatida tahlil qilish (Demidova. Miller, Nemets, Petrova, Renz)

“Badiiy tushuncha badiiy matnda ma'lum bir hodisa yoki ob'ektni majoziy ko'chirish bilan bog'liq bo'lgan va so'zda ifodalangan aqlliyl shakllanishdir” Tadqiqotchi Bepalovanning fikriga ko'ra “badiiy konsept yozuvchining ong birligi va u badiiy asarda o'z ifodasini topadi” Badiiy matn ijodiy jarayon mahsuli bo'lganligi sababli muayyan konsept birinchi o'rinda o'zgaruvchanlik va individuallikka ega bo'ladi. Xalqlarning madaniy tajribasi tushunchalar mazmunida mustahkamlanadi. Konseptlar bilimlar tuzilmasi sifatida milliy konseptual tizimini tashkil qiladi. Badiiy matndagi konseptsiyani o'rganish til hodisalarini o'rganish imkonini beradi. Demak badiiy konsept milliy tushuncha va individual mualliflik tushunchasining kesishuvidan yuzaga keladi. U majoziy, ramziy ma'noga ega chunki berilgan mazmundan ko'ra ko'proq ma'no anglanishi mumkin. Semantik mazmuniga ko'ra badiiy konseptlar asosiy va madaniy turlarga bo'linadi. Asosiy konseptlarga muayyan tarixiy davrda yoki ma'lum bir ijtimoiy-madaniy makonda shakllangan jamiyatning manaviy xayotini aks ettiruvchi umumiy tushunchalar kiradi. Ular axloqiy atamalar, manaviy fikrlar sifatida shakllanib adabiy asarda asosiy badiiy konsept sifatida nomoyon bo'ladi. Madaniy badiiy tushunchalar esa semiologik shakllanishlar bo'lib dunyoning etnik madaniy qarashlarini shakllantiradi, ular ma'lum bir madaniyatning aks ettiruvchi tushunchalardir. Madaniy konseptlar xalq ruhini aks ettiruvchi tushunchadir va uning eng dominant qiymati unda xalqning milliy qadriyatlariga bog'ligidir. Badiiy konsept tuyg'ular, g'oyalar kombinatsiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.A.Primov, X, Qodirova “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” o'quv uslubiy qo'llanma Urganch-2009.13 bet

2. Ш. Сафаров “Когнитив тилшунослик” 2006. 17 bet



3. A.E.Mamatov “ Zamonaviy lingvistika” Toshkent “Noshir” 2019
4. Ikromova Lola Boltayevna “Tilshunoslikda freym tushunchasining ifodalanishiga doir ilmiy nazariy qarashlar” maqolasi Buxora Davlat Universiteti ilmiy axboroti jurnali. 4/2020
5. M.T. Irisqulov “Tilshoslikka kirish” Ilmiy uslubiy nashr, 2009. 176 bet
6. Sh. Safarov “Kognitiv tilshunoslik” 2006. 17 bet
7. В. А.Маслова ”Концепт как способ изучения культуры через язык
8. С.Р. Абдыкадырова “Корреляция понятий концепт художественный концепт и межкультурный концепт” Кыргызстан г. Ош
9. Boris Vadimovich Kondakov. Concept of “tea” in Russian culture. Perm State University, Russian literature Department, 15 Bukireva Street, Perm, Russian Federation
10. Н. М. Фролова “Особенности языковой репрезентации концепта жизнь в пьесе Л.Н Андреева Жизнь человека” 2018
11. Милеко Елена Владимировна «художественный концепт как объект лингвистического исследования 2016
12. Ekaterina G. Shtyrlin “ The theoretical foundations of the selection of artistic concept in contemporaray linguistic cognition” Kazan Federal University, Kremliovskaya str,18, 42008, Kazan Russia
13. Е.А.Огнева “Когнитивное моделирование концептосферы художественного текста” 2013